

Barkamol avlod ta`lim – tarbiyasida Innovatsion omillarning o`rni

Роль инновационных факторов в воспитании гармонично развитого поколения

The role of innovative factors in the education of a harmoniously developed generation

Abdurasulova Kamola G`afurovna

JDPI Fiziologiya va ekologiya kafedrasida o`qituvchisi

Ismatova Sarvinoz Murodulla qizi

Maktabgacha ta`lim yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Barkamol avlod ta`lim – tarbiyasida innovatsion omillarning o`rni ta`lim muassasalarning o`quv- tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o`qitish usullari – interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o`rni va ahamiyati, pedagogik texnologiya va ularning ta`limda qo`llanishiga oid bilimlar, o`quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlash haqida ma`lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: Barkamol avlod, ta`lim, tarbiya, pedagogika, pedagogik texnologiya, innovatsiya, interfaol usul, mustaqil fikrlash, ijod qilish.

Аннотация: В данной статье роль инновационных факторов в воспитании гармонично развитого поколения, современные методы обучения в образовательном процессе общеобразовательных учреждений - интерактивные методы, роль и значение инновационных технологий, педагогических технологий и их роль в воспитании. Знания и опыт в сфере образования предназначены для того, чтобы учащиеся обладали знаниями и передовыми навыками.

Ключевые слова: Гармонично развитое поколение, образование, воспитание, педагогика, педагогическая технология, инновации, интерактивные методы, самостоятельное мышление, творчество.

Anotation: In this article, the role of innovative factors in the education of harmoniously developed generation, modern teaching methods in the educational process of educational institutions - interactive methods, the role and importance of innovative technologies, pedagogical technology and their role in education. Knowledge and experience in the field of education are provided to ensure that students have knowledge and advanced skills.

Key words: Harmoniously developed generation, education, upbringing, pedagogy, pedagogical technology, innovation, interactive methods, independent thinking, creativity.

KIRISH

Ta'limning, o'qitishning vazifasi fuqarolar. yoshlarning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lgan har bir kishining aqliy-amaliy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojini ta'minlash, o'zi hohlagan kasbini tanlash, uni mukammal egallab, shu sohada baxtiyor faoliyat ko'rsatish uchun moddiy-ma'naviy, tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Bu umumiy vazifadan ta'limning har bir bo'g'ini, turi va bosqichlarining o'ziga xos vazifalari kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Mutafakkir A. Avloniy ta'kidlaganidek, -Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda pedagogik faoliyat ham mavjud bo'lgan. Insonni dunyoga kelishi, faqat tug'ilishidan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki tug'ilgandan keyin o'z zamonasining taraqqiyoti darajasiga ko'tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishi, tarixiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi, ya'ni tarbiyaolishi kerak. Bu jarayonda katta avlod o'zining yashash, kurash va mehnat tajribasini, bilim va malakalarini kichik avlodlarga bera boshlaydi, yani yangi tug'ilgan odam bolasining rivojlanishi, shakllanishi va voyaga yetishi jarayoniga rahbarlik qilingan, boshqarilgan. Bu tarbiya deb atalmish ijtimoiy hodisa orqali amalga oshirilgan. Jamiyat rivojlangani sari yetuk, barkamol shaxslarni yetishtirish ehtiyoji ham ortib borgan hamda o'zgarib, yangilanib, jamiyatga xizmat qilgan. Insoniyat jamiyatning turli bosqichlarida ta'lim-tarbiya muassasalarini yaratish, yosh avlodlarni o'qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tadbiiq qilish jarayonida Pedagogika fani paydo bo'la boshladi. Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiyaning usullari, tashkil etish shakllari, umuman uning qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi.

MUHOKAMA

Yuqoridagilar jamiyat hayoti barcha jabhalarining muvafaqiyatini belgilab beruvchi, shu bilan ularning poydevori hisoblanuvchi ta'lim-tarbiya sohasiga ham to'laligicha tegishlidir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va

tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o`quv jarayonida o`quvchi asosiy figuraga aylanadi. Hozirgi davrda sodir bo`layotgan innovatsion jarayonlarda ta`lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o`zlashtirish va o`zlashtirgan bilimlarni o`zlari tomondan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

NATIJALAR

Shuning uchun ham ta`lim muassasalarning o`quv- tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o`qitish usllari – interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o`rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta`limda qo`llanishiga oid bilimlar, tajriba o`quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha- innovation) – yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoliyatiga yangilik, o`zgartirishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalanildi.

Interfaol – (“inter”- bu o`zaro, “bu o`zaro, “akt” –harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqat tartibida bo`lishni anglatadi. Boshqacha so`z bilan aytganda, o`qitishning interfaol uslubiyatlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo`lib, unda ta`lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo`ladilar, ular biladigan va o`ylayotgan narsalarni tushinish va fikrlash imkoniyatiga ega bo`ladilar. Interfaol darslarda o`qituvchining o`rni qisman o`qituvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo`naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o`ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko`rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, ularga:

talabanning dars davomida befarq bo`lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

talabanning o`quv jarayonida fanga bo`lgan qiziqishlarini doimiylikini ta`minlashi;

talabanning fanga bo`lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirilishi;

pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

O'zbekiston davlatining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini innovatsion omillar asosida amalga oshirish maqsadi asosan xalq farovonligini oshirishga, barkamol insonni shakllantirishga qaratilmoqda. Zero, hozirgi yosh avlod - mamlakat kelajagining qanday bo'lishini belgilovchi ijtimoiy qatlamdir. Shuning ushun ham mamlakatimiz

Prezidenti Islom Karimov bu sohadagi strategik maqsadlarni quyidagicha ifodalagan edi: «O'z-o'zidan ayonki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim prinsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega».

Umuman, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning innovatsion rivojlanishi ustuvor ravishda o'zida yuqori innovatsion salohiyatni mujassamlashtirgan ta'lim tizimiga yo'naltirilmoqda. Innovatsion salohiyat strategik resurslar sirasiga kirib, iqtisodiy taraqqiyotida inovatsion omillar asosida amalga oshirish maqsadi asosan xalq farovonligini oshirishga, barkamol insonni shakllantirishga qaratilmoqda. Zero, hozirgi yosh avlod - mamlakat kelajagining qanday bo'lishini belgilovchi ijtimoiy qatlamdir. Shuning uchun ham mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov bu sohadagi strategik maqsadlarni quyidagicha ifodalagan edi: «O'z-o'zidan ayonki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni moderinizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim prinsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega».

Umuman, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning innovatsion rivojlanishi ustuvor ravishda o'zida yuqori innovatsion salohiyatni mujassamlashtirgan ta'lim tizimiga yo'naltirilmoqda. Innovatsion salohiyat strategik resurslar sirasiga kirib, u mamlakat taraqqiyotida asosiy manba hisoblanadi. Mamlakatdagi strategik maqsadlardan kelib chiqib, 1997 yilda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'grisida»gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Mazkur dasturda ta'lim sohasini tubdan isloh etish, uni mafkuraviy cheklashlardan to'la holi qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi, yuksak ma'naviyat va ahloq talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish vazifalari qo'yildi.

O'zbekistonda mustaqillik davrida milliy va umuminsoniy manfaatlarni amalga oshirish maqsadlarini o'zida ifodalagan milliy va uzluksiz ta'lim konsepsiyasi ishlab chiqildi. Uni hayotga tatbiq etish natijasida jahondagi rivojlangan mamlakatlar mezonlari talablariga javob beradigan ta'lim tizimi shakllantirildi. Unga muvofiq insonning butun umri davomida muttasil ta'lim olish jarayoni, individual jihatlarini boyitish va salohiyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Binobarin, endilikda mamlakatimizda ta'lim-tizimi rivojlanishning eng ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Respublikaning bosqichma-bosqich rivojlanishida ta'limning o'rnini Yurtboshimiz quyidagicha baholaydi: «Chuqur islohotlarni amalga

oshirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, birinchi navbatda, kadrlar potensialiga, ularning kasb jihatdan tayyorligiga bog'liq bo'ladi. Bu esa butun ta'lim va madaniyat tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etadi. Chunki ayni bilimdonlik va yuqori madaniylik ozodlikdan hammaning baxt-saodati yo'lida foydalanish imkonini beradi. Avvalgi yillarda ta'lim tizimimiz jahon sivilizasiyasining ilg'or yutuqlaridan va xalqimizning tarixiy ildizlaridan ajralib qolgan edi. Bu ahvol tubdan o'zgartirilishi lozim. Aslini olganda xalqimizning asriy boyliklarini, jahon fani va madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini o'ziga singdirib oladigan yangi avlodni kamol toptirish kerak bo'ladi».

XULOSA

Ta'lim tizimiga innovatsion o'zgarishlarning kirib kelishi davom etmoqda. Ayni paytda, hozirgi davrda ta'limning tezlik bilan taraqqiy etishi hududlarda ilmiy-amaliy markazlarni rivojlantirish, o'quv dasturlari, uslubiyot, o'quv-uslubiy materiallar, qo'llanmalar va ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish kabi innovatsion jarayonlar bilan bog'liq vazifalar kun tartibiga kiritilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Barkamol avlod yili" davlat dasturi.-T.: O'zbekiston, 2010.-80 b
2. D. Ro'ziyeva M. Usmonboyeva, Z. Xoliqova —interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi Toshkent 2013-yil.
3. I. A. Karimov, —Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T. —Sharq nashriyot- matbaa konsern. Toshkent, 1997-yil.
5. K. Ishmatov —Ilg'or pedagogik texnologiyalar, Namangan 2000-yil.
6. Obidov R. Payg'ambarlar tarixi islomiyat tarixidir.2-Kitob,T:Movorounnaxr,2005.
7. R. Mavlonova —Pedagogika , Toshkent 2000-yil.
8. K. Hoshimov, —Pedagogika tarixi, Toshkent 2005-yil.
9. T. Madumarov, M. Kamoldinov — Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta'lim –tarbiya jarayonida qo'llash Toshkent —Talqin 21012-yil.
10. J.X.Yo'ldashev —Yangi pedagogika yo'nalishlari, muammolari, yechimlari . —Xalq ta'limi jurnali, T.,№4 1999-yil.

<https://hozir.org/andijon-davlat-universiteti-pedagogika-fakulteti.html?page=5>

www.ziyonet.uz

WWW.pedagog.uz

www.nadlib.uz.info@nadli.uz